

## YOSHLARNING IJODIY SALOHIYATINI OSHIRISH VA ULARNI RASSOMCHILIK SOHASIGA JALB QILISHNING AHAMIYATI

**Parizod Nasirdinova Shuhrat qizi**

*Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi  
O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada talaba-yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini qamrab olish, ularning qiziqish va ijodiy izlanishlari uchun rassomchilik san'atiga amaliy yordam - ko'mak berish haqida fikrlar bayon etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *tashabbus yoshlar, rassom, iste'dod, rasm, tasviriy san'at, rang tasvir, haykaltaroshlik, grafika, nafis san'at turi.*

**Abstract** *The article describes the ideas about covering the free time of our students and young people, their interest and creative search for practical assistance to the art of painting.*

**Keywords:** *initiative Youth, artist, talent, Painting, Fine Art, Painting, Sculpture, graphics, elegant art type.*

### KIRISH

San'at – inson qalbini uyg'otuvchi, ruhini tarbiyalovchi, hayotga muhabbat hissini uyg'otuvchi qudratli kuch. Bu kuch orqali asrlar davomida xalqlarning madaniyati yuksalib kelmoqda. San'atning yaralishi va dunyo yuzini ko'rishiga turtki bo'luvchi insonlar rassom, haykaltarosh, kompozitor, kulol va boshqa shaxslardir. San'at-ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shaklidir. San'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsulidir. San'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi.

San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. "San'at" keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini qamrab oladi. San'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan.

"San'at" tushunchasi insonning go'zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o'zlashtirish (va o'zgartirish)ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati, hamda uning natijasi sifatida vujudga kelgan jami narsalar tushuniladi, ya'ni, go'zallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi san'atga aloqadordir.

### SAN'ATNING TA'SIRI

U inson uchun estetik zavq-shavq manbai; inson hayotiga go'zallik baxsh etadi; odamlarda voqelikka nisbatan hissiy munosabatni shakllantiradi. Hayotni kuzatish, o'rganish va bilish vositasi hamdir. Hayotni inson orzu qilgan tomonga o'zgartirishda yordam beradi. Tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Hayotdagi go'zallikdan ilhomlanishga, yomonlikdan nafratlanishga chorlaydi.

Odamlar orasidagi ma'naviy ko'prik, muloqot vositasi bo'lib, odamlarning badiiy-estetik didini tarbiyalaydi, ularda Ma'lum dunyoqarashni shakllantiradi. San'at jamiyat ma'naviy hayotining boshqa hodisalari (fan, mafkura, axloq) Ma'lum darajada bog'liqdir. San'atning maqsadi dunyoni badiiy o'zlashtirish, odamga lazzatbaxsh eta oladigan, uni ma'naviy boyita oladigan asarlar yaratish yo'li bilan kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Inson san'atdan estetik zavq, bitmas-tuganmas ijodiy kuch-qudrat oladi va shu ma'noda san'at ma'naviy yuksalishning eng ta'sirchan quroliga aylanadi, biroq eng ahamiyatli jihati shundaki, u inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Rassomlarning ijod namunalari bugun yurtimizdagi va xorijdagi muzey, galereyalarda saqlanadi. Ular nafaqat O'zbekistonlik, balki xorijlik san'at ixlosmandlari konglidan ham joy olgan. O'zbekiston tasviriy san'atida yorqin iz qoldirgan rassomlarimiz talaygina. Chingiz Ahmarov, Rozi Choriev, Rahim Ahmedov, Orol Tansiqboev, Akmal Ikromjonov va boshqa ko'plab mo'yqalam sohiblari shular jumlasidandir.

Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi. Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizda yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi.

Iqtidorli yoshlarimizni hartomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni ijodiy kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratib berish ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 may kungi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilganligi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda rivojlantirishning ustuvor yo'nalislari bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi bosqichi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Milliy tarbiya barcha tarbiyaning asosidir. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridan eng avvalo ta'lim tizimini isloh qilish, unimilliy-ma'naviy qadriyatlar negizida shakllantirish, jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, aqliy barkamol insonlarni tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ham kelajagimiz yoshlarini ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshtamuhim tashabbus bilan chiqdilar.

Birinchi tashabbus yoshlarni musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Talaba-yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini qamrab olish ularning qiziqish va ijodiy izlanishlari uchun barcha bosqichda amaliy yordam - ko'mak berish ustoz va murabbiylarga katta vazifalar yuklaydi. Jumladan Prezidentimiz tomonidan olg'a surilgan tashabbusning birinchi asosiy bandida aynan yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini rivojlantirish, ularning, iste'dodini yanada yuzaga chiqarishga xizmat qilinishi ta'kidlanganligi qo'llanmani yaratishga turtkibo'ldi.

Ma'lumki, maktab tayyorlov bosqichida yoki maktab partasida o'tirgan o'quvchiga boshlang'ich "Tasviriy san'at" va yuqori sinflarda "Chizmachilik" darslarida ranglar olamini anglata olish, uning qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirish ustozga va bolaning ota-onasiga mas'uliyat yuklaganidek "San'at tarixi" fanining o'qitilishida qo'shimcha mashg'ulotlarning o'rni alohida.

Maqsadimiz "San'at tarixi" faniga qiziquvchi talabalarning ijodiy faoliyatlariga imkon qadar ma'lumotlarni taqdim etish, yangi ijodiy asarlar yaratilishiga ozmi-ko'pmi hissamizni qo'shish.

Tasviriy san'at – rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san'at turi; voqelikni uning osongina ilg'ab olinadigan fazoviy shakllarda ko'rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Tasviriy san'at turlari o'z xususiyatlariga qarab real borlikni obyektiv mavjud sifatlari — hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nur va havo muhiti, harakat va o'zgarishlari xissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretligidan illyuzionizmga o'tish mumkin. Tasviriy san'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi (fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san'at insonning ruhiy qiyofasini, uning o'zgaralar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi. Ba'zan mavjud bo'lmagan, rassom tasavvurining mahsuli bo'lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi.

Davrning faqat hissiy holatigina emas, balki uning g'oyaviy mohiyati, siyosiy, falsafiy, estetik va etik g'oyalari ham Tasviriy san'atning mazmuniga aylanadi. Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiga o'z munosabatini yuksak darajada ifodalashga imkon beradi, shu tufayli hayotni bilishning faol shakli sifatida jamiyatning ijtimoiy hayotida, Ma'lum tizimning ommaviy ongini qaror topishida muhim rol o'ynaydi. Olamni bilishning shakllaridan biri sifatida ijtimoiy ongni shakllantiradi hamda xalq orzu umidlarini ifodalash shakli sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda umumg'oyaviy kurashlarning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi.

Insoniyatning mehnat faoliyati, e'tiqodlari, diniy qarashlari zaminida tasviriy san'at paydo bo'lgan va rivojlangan. Qadimgi tosh asrining ilk bosqichida yaqin son o'z ehtiyoji uchun zarur bo'lgan buyumlarni yaratish, libos, turarjoylar tayyorlash jarayonida qulaylik, maqsadga muvofiqlik tushunchalari rivojlanib, ritm, simmetriya hissi ortdi. Marhumlar bilan vidolashuv, dafn marosimlarida marhumlar qabriga turli buyumlar ko'yish odatlarida tasviriy san'atning fazoviy fikr yuritish, fazoviylik, kenglik, olam tushuncha va tasavvurlari shakllanib bordi. Tosh, suyak, keyinchalik sopoldan ishlangan turli shakl va haykallarda, qoyatoshlarga, gordevorlariga chizilgan, rangda ishlangan rasmlarda ibtidoiy insonning mehnat faoliyati, dunyo, borliq haqidagi o'y hayollari, o'zga dunyo to'g'risidagi tasavvurlari mujassamlashgan.

Tasviriy san'at tur va janrlari ko'paydi, realistic yo'nalishdagi janrlar (portret, manzara, natyurmort, maishiy janr) yetakchi o'ringa chiqa boshladi. Uyg'onish davri tasviriy san'atiga xos bo'lgan vazminlik, chiziq, rang, faktura mutanosibligi o'rnini jo'shqinn shakl va ranglar o'yini egallab bezakdorlik xususiyatlarining ortishi kabilar kuzatiladi. Insoniyatning mehnat faoliyati, e'tiqodlari, diniy qarashlari zaminida Tasviriy san'at paydo bo'lgan va rivojlangan O'zbekiston Tasviriy san'ati jahonhamjamiyatida sodir bo'layotgan jarayonlar bilan hamnafas bo'lib, har bir ijodkor o'zqarash va kechinmalarini yangicha uslub va shakllarda ifoda etishga intilishi bilan xarakterlanadi.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, san'at ijtimoiy hayotning mustaqil bir sohasi bo'lib, jamiyatning barcha tomonlariga ta'sir o'tkazadi, ijtimoiy ongning hamma shakllari bilan aloqaga kirishadi. San'at voqelikni badiiy vositalar orqali yanada to'laqonli, jozibali anglashga yordam beradi. San'at uchun inson bosh mavzu bo'lib xizmat qiladi. San'atda inson hamma vaqt ham bevosita ifodalanmaydi. San'at narsalardan, tabiat hodisalaridan inson uchun ahamiyatli bo'lgan ma'noni izlaydi, inson qalbini poklaydi, uning har tomonlama kamol topishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Siz ham san'atdan doimo bahramand bo'lib, ichki olamingizni, taffakuringizni boyitib va shunchaki emotsional jihatdan pozitiv ruhda bo'lishingizga tilakdoshmiz.

Dunyoni go'zallik qutqaradi, degan gap asrlar davomida o'z ifodasini yo'qotmaydi deb chin dildan ishonamiz. Tasviriy san'atxalqning hayotini, rassomning xissiyotlarini yoritib berishga qaratilgandir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.Mirziyoev. "Xalqimizning roziligi bizning foyiatimizga berilgan eng loyiq bahodir".196-bet
2. Sh.Mirziyoev. "Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" T.O'zbekiston. 2018 yil. 21-bet
3. Artiqov .G'.A. "Materialshunoslik, rangtasvir texnika va texnologiyasi". O'quv qo'llanma. Toshkent "INFO CFPITAL GROUP" 2018 yil.
4. Artiqov G.A. "Rang-tasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi", O'quv qo'llanma. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T. 2007.-71 b.
5. ArtiqovG'.A. "Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi" , O'quv qo'llanma. T., Sharq, 2007 y. 72 b.